ROBERT BERNS LIRIKASIDA VATANPARVARLIK MAVZUSI VA RANGLAR SIMVOLIKASIDA MILLIY-FOLKLOR AN'ANALAR AKSI

***Yangiboyeva Kamola Iskandar qizi**, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Tezisda Robert Berns vatanparvarlik lirikasi ("Scots Wha Hae") va ranglar simvolikasida ("O Were My Love Yon Lilac Fair") milliy urf-odat hamda xalq og'zaki ijodi ta'sirining ifodalanishi tahlil qilinadi. She'rning shakli, ritorik so'roqlar, da'vat ruhi va ranglarning ramziy ma'nolari folklor an'analari bilan bog'liq holda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Robert Berns, vatanparvarlik lirikasi, folklor, ranglar simvolikasi, ritorik so'roq, milliy o'zlik, "Scots Wha Hae".

Annotation. The thesis examines how national customs and oral folk tradition are reflected in Robert Burns's patriotic lyrics ("Scots Wha Hae") and in his colour symbolism ("O Were My Love Yon Lilac Fair"). The form of the poems, rhetorical questions, the spirit of the call to arms and the symbolic meanings of colours are interpreted in connection with folk traditions.

Keywords: Robert Burns, patriotic lyrics, folklore, colour symbolism, rhetorical question, national identity, "Scots Wha Hae".

Maqsad. Berns vatanparvarlik lirikasi va rang simvolikasida milliy o'zlik hamda folklor ildizlarining badiiy ifodasini ochib berish.

Asosiy qism. Vatanparvarlik, Vatan va xalq mavzusi Berns lirikasidagi eng ko'p uchraydigan va umrboqiy mavzudir, chunki shoir millat va xalq g'ami bilangina chinakam shoirga aylanadi. Uning vatanparvarlik she'rlarida shotland xalqiga xos mardlik, jasurlik va erkparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi, bosh qahramonlar esa millatning mard va jasur farzandlaridir. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, Bernsda Vatan mavzusi sevgi, sadoqat va sog'inch tuyg'ularini uyg'otuvchi markaziy motiv

bo‘lib, Shotlandiya xalq qalbida alohida o‘rin tutgan sevimli Vatan sifatida tasvirlanadi [1]. Shoir ijodidagi milliylikni va individuallikni aynan yurtga muhabbat va uning taqdiriga mas’uliyat ta’minlaydi.

Bu yo‘nalishdagi eng mashhur she’rlardan biri “Scots Wha Hae” (1793) bo‘lib, milliy o‘zlikni anglashga katta xizmat qilgan, millat erkini targ‘ib etgan asardir [3]. Berns uni 1314-yilgi Bannokbern jangi arafasida Shotlandiya qiroli Robert Bryusning askarlariga murojaati sifatida yaratadi. Jang Shotlandiya mustaqilligi uchun Angliya qiroli Edvard II ga qarshi bo‘lgan, unda nomi afsonalarga qorishib ketgan xalq qahramoni Uilyam Uolles ham ishtirok etgan. She’r shakl jihatidan xalq og‘zaki ijodidagi to‘rtliklarga yaqin bo‘lib, millat madhiyasi darajasiga ko‘tarilishga qodir ohangga ega; unda Angliya bosqinchiligi va oddiy xalqqa ko‘rsatilayotgan zulm qoralanadi, erk eng muqaddas tuyg‘u sifatida ulug‘lanadi:

Scots, wha hae wi’ Wallace bled,
Scots, wham Bruce has aften led,
Welcome to your gory bed,
Or to victory!
Uolles-la qon to‘kkan shotland,
Bryus jangga boshlagan mardlar.
Yoki o‘lim, yoki g‘alaba,
Xush kelibsiz, ey azamatlar.

Tarixiy shaxslarning nomlari she’rga reallik baxsh etadi, bu esa his-tuyg‘ularning yanada jonli bo‘lishini ta’minlaydi. She’rning sodda va ravon tili, jangovar ohangi tufayli uni turli ijodkorlar qo‘shiq qilgan va u xalq orasida keng tarqalgan; asar bugungi kunda ham xalq tomonidan sevib kuylanadi.

She’r mazmunan to‘laligicha folklorga tutashadi, ya’ni xalq iboralari, maqollari va usullarini takrorlaydi. Birinchi bandning o‘zidayoq shotland mard yigitlarining

Uolles bilan qonli jangga kirishi “qon kechib jang qilmoq” ifodasini yodga soladi. She’rdagi ritorik so‘roqlarda ham xalq og‘zaki ijodi ruhi sezilib turadi:

Wha will be a traitor knave?
Wha can fill a coward’s grave?
Wha sae base as be a Slave?
Let him turn and flee!

Ritorik so‘roq ortida hech kim xoin bo‘lib yashashni istamasligining tasdig‘i yotadi. Xoinlik azaldan qoralanadi va bu fikrning aynan ritorik so‘roq orqali yetkazilishi folklor xususiyatidir. Epik asarlarda ham ulug‘vor tuyg‘ular madh etilib, xoinlik, qo‘rqoqlik va sotqinlik insoniyatdagi eng yovuz jihatlar sirasiga kiritiladi va kechirilmaydi. She’r oxirida qirolning otashin nutqi da’vat va chaqiriq tusini oladi:

Wha, for Scotland’s king and law,
Freedom’s sword will strongly draw,
Freeman stand, or Freeman fa’,
Let him follow me!

Barcha qahramonlik asarlarida yetakchi va yo‘lboshchi sardorlar askarlarni ortlaridan ergashtirish uchun tantanavor nutq so‘zlaydi. Bu she’rda ham Berns qirol nutqi orqali o‘z maqsadini ochib beradi: millatning har bir qo‘rqmas farzandini erkinlik uchun kurashga chaqiradi, yashasa erkinlik uchun yashashni, o‘lsa ozodlik uchun jon fido etishni so‘raydi. Shoir she’riyatidagi har bir misra milliy o‘zlikni targ‘ib qiladi va an’analarning davomi sifatida vujudga keladi.

Bernsning milliy ruhi faqat vatanparvarlik mavzusida emas, ranglar simvolikasida ham namoyon bo‘ladi. Ranglar adabiyotda hamisha ma’lum mazmunni, obrazlilik va majozni ifodalashga xizmat qilgan; ranglar simvolikasi dunyo xalqlari ijodiyotida mavjud bo‘lib, oq, qizil, qora ranglarning ramziy ma’nolari umuminsoniy xarakterga ega ekanligini tadqiqotchilar qayd etgan [2, B. 56]. Berns she’riyatida ranglar ikki xil ifodalanadi: 1) to‘g‘ridan to‘g‘ri nomlanmasdan, ma’noviy vosita

yordamida (masalan, tun — qorong‘ulik, qora rang ramzi; tong — yorug‘lik, oq rang ramzi); 2) to‘g‘ridan to‘g‘ri nomlanib, milliy xususiyatlar, urf-odat va an’analarni aks ettirib (masalan, binafsharang, qizil).

Birinchi turga “Tam o‘Shanter” dostoni misol bo‘ladi. Satirik syujetli bu poemada ichkilikbozlik va sayoq yurish oqibatida jinlar bazmiga duch kelgan Tam obrazi chiziladi [5]:

When chapman billies leave the street,

And drouthy neebors, neebors meet…

Bu o‘rinda tun ifodasi qora rang mazmunini beradi, qorong‘ulik ortida esa yomon illatlar yashiriladi. Shoir ranglar ramzini ma’noviy jihatdan o‘quvchiga anglatadi, bosh qahramonning qo‘rquvi va tavbasi orqali esa ibrat chiqaradi.

Ikkinchi turga “O Were My Love Yon Lilac Fair” she’ri misol bo‘ladi [4]. Romantik xarakterdagi bu she’rda sof muhabbat va sadoqat tuyg‘usi ulug‘lanadi:

O were my Love yon lilac fair,

Wi’ purple blossoms to the Spring;

And I, a bird to shelter there,

When wearied on my little wing;

Shotland milliy odat va an’analarida sadoqat eng ulug‘ qadriyatlardan biri bo‘lib, bu jihat she’rda yaqqol ko‘rinadi. Binafsharang (purple) go‘zallik timsoli sifatida keladi, bahor va gullar shoir tuyg‘ulariga yanada go‘zal ta’sir ko‘rsatadi, lirik kechinmaning yaralishiga sabab bo‘ladi. Lirik kechinma esa ijodkor qalbini zabt etgan, uning oromini buzgan ruhiy holatdir [7, B. 85]. Milliy urf-odat va folklor elementlari bilan uyg‘unlashgan bu kechinma o‘ziga xos jozibaga ega bo‘ladi. Keyingi bandda ham rang ramziyligi davom etadi:

O gin my Love were yon red rose,

That grows upon the castle wa’;

And I myself a drap o’ dew,

Into her bonie breast to fa'!

Lirik qahramon sevgan yori qizil gul bo‘lsa, uning bag‘rida shabnam bo‘lishni orzu qiladi. Qizil rang butun dunyo adabiyotida bo‘lgani kabi shotland adabiyotida ham jo‘shqin va pok muhabbat ramzidir. Berns yaratgan she’rlarda hamisha milliy tuyg‘ular va milliy ruhiyat aks etadi; shoir she’riyatidagi zamon ruhi, avvalo, g‘oyaviy mazmunda — jamiyatda tenglik, inson qadr-qimmati va adolat g‘oyalarini ilgari surishida namoyon bo‘lishi qayd etilgan [6, B. 121]. Muhabbat, adolat, inson sha’ni kabi masalalar esa adabiyotning o‘lmas mavzulari bo‘lib qolaveradi.

She’rning kompozitsiyasi ham da’vat qo‘shig‘iga xos tuzilgan: avval askarlarga murojaat, so‘ng ritorik so‘roqlar orqali xoinlik va qo‘rqoqlikni qoralash, nihoyat esa erkinlik uchun kurashga ochiq chaqiriq keladi. Fikr bosqichma-bosqich kuchayib, yakunda yo‘lboshchiga ergashish chaqirig‘iga aylanadi. Bu tuzilish she’rni og‘zaki ijroga, jamoaviy kuylashga moslashtiradi va uning marsh ruhini kuchaytiradi.

Ranglar simvolikasiga qaytsak, shoir kechinmalari lahzada turlicha bo‘lishi yoki vaqt o‘tgani sari o‘zgarib borishi mumkin, bu lirik kechinmaning o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi. Kechinmaning turli holatlari ko‘pincha ranglarga tayanadi, majoz va obrazlilik ham ranglarni talab qiladi. Berns she’riyatida ranglar chuqur milliy xarakter va an’analar mazmunini aks ettirishi bilan ahamiyatli, ularning folklor ildizlariga tayanishi esa mazmunni yanada chuqurlashtiradi.

Ko‘rinadiki, vatanparvarlik lirikasi ham, ranglar simvolikasi ham Bernsda xalq tili va xalq ramzlariga tayanadi. Birinchi holatda bu ritorik so‘roq, da’vat va tarixiy nomlar orqali, ikkinchisida ranglarning ramziy ma’nolari orqali ifodalanadi. Har ikki yo‘nalishda ham milliy ruh individual kechinma bilan uyg‘unlashadi va she’r xalqqa ham, jahon o‘quvchisiga ham tushunarli bo‘lib qoladi.

She’rning o‘zbekcha tarjimasida ham folklor xususiyatlari saqlanadi: qisqa va ixcham misralar, ohangdoshlik, “azamatlar”, “mardlar” kabi xalq tiliga yaqin so‘zlar asl nusxadagi jangovar ruhni yetkazishga xizmat qiladi. Vatan, ozodlik va sadoqat

qadriyatlari o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham ulug‘lanadi, shu sababli Bernsning vatanparvarlik she’rlari o‘zbek o‘quvchisiga ham yaqin va tushunarli.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Berns she’riyatida milliy ruh bir vaqtning o‘zida tarixiy xotira, xalq tili va ramziy tasvir orqali ifodalanadi. Bu uch unsur uyg‘unligi shoir ijodini shotland madaniyatining ajralmas qismiga aylantirgan va uning she’rlarini bugungi kunda ham yashovchan qilib turibdi.

Xulosa. Berns vatanparvarlik lirikasida milliy ruh, erkparvarlik va tarixiy xotirani xalq qo‘shig‘iga xos sodda shakl, ritorik so‘roq va da’vat usullari bilan uyg‘unlashtiradi; “Scots Wha Hae” she’ri bunga yorqin dalildir. Ranglar simvolikasi esa lirik kechinmani chuqurlashtirib, bir tomondan ma’noviy vosita orqali (tun — qora rang), ikkinchi tomondan bevosita nomlanib (binafsharang, qizil) shotland urf-odatlari va folklor ildizlarini ifodalaydi. Natijada Berns ijodi nafaqat badiiy kamolot namunasi, balki milliy o‘zlikni anglash vositasi sifatida ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayeva J. Motherland in Robert Burns’ Poetry: Patriotism, Nostalgia and Identity // Zenodo. – 2024. – DOI: 10.5281/zenodo.11069372.
2. Турдимов Ш. Халқ қўшиқларида рамз. – Т.: 2020. – Б. 56.
3. Burns R. Scots Wha Hae // Representative Poetry Online, University of Toronto Libraries. – URL: https://rpo.library.utoronto.ca/content/scots-whae
4. Burns R. O Were My Love Yon Lilac Fair // Lyrics.com. – URL: https://lyrks.com/lyrics/traditional-transcriptions/the-white-rose
5. Burns R. Tam O’Shanter // Project Gutenberg. – URL: https://www.gutenberg.org/files/25733/25733-h/25733-h.htm
6. Sattiboyev I. Robert Berns she’riyati tarjimalarida zamon ruhi va milliy kolorit masalalari // Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya (ZDIFT). – 2025. – № 4(15). – B. 121–123.

7. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти, 2004. – Б. 85.